Bugungi kunga qadar olimlar oʻrtasida islom iqtisodiyotini taʼriflashda yagona fikr mavjud emas. Mahalliy va xorijiy olimlar «Islom iqtisodiyoti» atamasining maʼnosini turlicha talqin qilishadilar.

Saudiya iqtisodchisi Muhammad Umar Chapra (2011) «Islom iqtisodiyoti nima?» nomli kitobida: “Islom iqtisodiyoti - odamlarning shaxsiy erkinliklarini buzmasdan va uzoq muddatli makroiqtisodiy va ekologik disbalansni yaratmasdan, islomiy taʼlimotga muvofiq noyob resurslarni taqsimlash orqali farovonlikka erishishga yordam beradigan bilim sohasi” - ekanligini yozadi. [1]

Al Azzaviyning (2016) fikriga koʻra, islomiy moliya tizimi koʻpincha foizlarni undirishni nazarda tutmaydigan moliyaviy tizim sifatida tasvirlangan. Islomiy banking islom tamoyillariga asoslangan - islom jamiyatining iqtisodiyotni boshqarish, ijtimoiy, siyosiy va madaniy jihatlari bilan bogʻliq qoida va qonunlar majmui. Islom banklari islom moliya tizimining muhim elementi hisoblanadi. Ular anʼanaviy banklar bilan bir xil funksiyalarni bajaradi, yaʼni milliy toʻlov tizimining ishlashini taʼminlaydi va moliyaviy vositachilar sifatida harakat qiladi. Islom axloq normalariga koʻra, halol mehnat bilan qoʻlga kiritilgan boylikni, shuningdek, meros yoki hadyani tan olish odat tusiga kirgan. [2]

A.Yu. Juravlevning (2017) fikricha, islom iqtisodiyoti «musulmonlarning jamiyat iqtisodiy hayotini tashkil etish tamoyillari va mexanizmlariga oid qarashlari tizimidir». Bu taʼrifdagi axloqiy komponent musulmonlarning diniy vazifalari: resurslarni ehtiyotkorlik bilan boshqarish, jamiyatda ekspluatatsiyaning oldini olish va adolatni taʼminlashdir. [4]

R.I. Bekkin esa A.Yu. Juravlev tomonidan berilgan taʼrifni inobatga olib, baʼzi tushuntirishlar kiritadi. U musulmonlarning qarashlari har doim ham iqtisodiy hayot haqidagi islomiy gʻoyalarga mos kelavermaydi, shuning uchun qarashlar tizimi haqida emas, balki butun musulmon dini haqida gapirish toʻgʻriroqligini taʼkidlaydi: «musulmon huquqi normalari va tamoyillariga muvofiq boshqaruv tizimi». Bundan tashqari, Bekkin islom iqtisodiyotini «uchinchi yoʻl» iqtisodiyoti, «muqobil iqtisodiyot» deb ataydi. [5]

Yuqoridagi olimlarning ilmiy ishlari va fikrlarini oʻrgangan holda shuni qayd etish lozimki, biz axloqiy iqtisod nima ekanligini tushunishimiz kerak. Biz uni ijtimoiy adolatga erishish maqsadida iqtisodiy omillarni axloqiy meʼyorlar bilan muvozanatlashtiradigan oʻziga xos taʼlimot sifatida belgilashimiz mumkin. Ammo shuni taʼkidlash joizki, adolat tamoyiliga asoslangan islom iqtisodiyoti axloqiy iqtisodiyotning timsoli hisoblanadi. Demak, islom iqtisodiyoti axloqiy iqtisodiyot tamoyillarini amalda qoʻllashning namunasidir, deb taxmin qilishimiz mumkin.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy tadqiqot davomida maqolada islomiy bankingni global moliyaviy tizimga integratsiyalashuvi va uning ahamiyati ilmiy mushohada, abstrakt-mantiqiy, tizimli tahlil, analiz va sintez tamoyillari asosidagi usullardan foydalanib, hamda, analitik tahlil, qiyosiy tahlil, statistik maʼlumotlar tahlilidan foydalanilgan holda muammolar aniqlanib, muammolarning yechimi sifatida ilmiy asoslangan takliflar berilgan. Bunda, islom bank tizimining rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish uchun xalqaro tashkilotlar (Islom taraqqiyot banki, xalqaro valyuta jamgʻarmasi) nashrlari; Markaziy banklarning yillik hisobotlari, shuningdek, xalqaro reyting agentliklari (Ernst&Young, Tompson Reuters, Blossom va boshqalar)ning tahliliy materiallari va tadqiqotlari manbaa boʻlib xizmat qildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Islomiy banking faoliyatini tahlil qilishni boshlashdan oldin, avvalo islomiy bank modelining qaysi tamoyillar asosida qurilganini aniqlash kerak. Islom axloqi meʼyorlariga koʻra, bankni tashkil etishning markazida adolat

va halollik tamoyillari turadi. Biroq, bankning asosiy vazifasi - moliyaviy vositachilik orqali foyda olish haqida unutmang, chunki uning hayotiy faoliyati bevosita boshqalarning jalb qilingan mablag‘lariga bog‘liq. Bu masalani Islom iqtisodiyoti prizmasida ko‘rib chiqsak, shuni ta’kidlash joizki, Islomda «yomon» va «yaxshi» (halol) pullarga aniq bo‘linish mavjud. Xususan, tamaki, alkogol, qurol-yarog‘ sotish yoki sotib olish, shuningdek pornografiyani tarqatish, qimor o‘yinlarini rivojlantirish bilan bog‘liq savdo operatsiyalari natijasida foyda olish taqiqlanadi. Shuning uchun bu maqsadga islom tamoyillariga mos keladigan halol biznes deb hisoblangan moliyaviy xizmatlarni orqali erishish kerak.

Yana bir asosiy farq - bu islomiy bank modelida “ribo” deb nomlanuvchi foiz to‘lovi shaklidagi mukofotning yo‘qligidir. Ushbu element mavjud bo‘lganda, moliya institutini, ya’ni bizning holatimizda – bankni islomiy moliya instituti deb hisoblash mumkin emas. Shunga ham aniqlik kiritish kerakki, taqiq foyda olishga emas, balki faoliyat natijalariga bog‘liq bo‘lmagan holda oldindan qat’iy belgilangan miqdordagi foyda olishga qo‘yiladi. An’anaviy bank modelidan farqli o‘laroq, islomiy bankingda kapital egasining mukofoti oldindan belgilangan miqdorni to‘lash shaklida bo‘lmasligi kerak. Bankning o‘zi moliyalashtirilayotgan loyihaning ishtirokchisi bo‘lsa foyda olishi yoki savdoda ishtirok etishi, hamda mahsulot tannarxi va uni sotish narxi o‘rtasidagi marjaga qarab daromad olishi mumkin. Bunday hollarda bank va korxona (kapital oluvchi) o‘rtasida foyda va risklar taqsimoti mavjud bo‘lib, bu ham barcha risklar moliyalashtirilgan tomon tomonidan qoplanadigan G‘arb tizimidan asosiy farqi bo‘lib hisoblanadi.

Moliyalashtirishning islomiy asoslariga qaytadigan bo‘lsak, shuni qayd etish lozimki, “ribo” - sudxo‘rlikni anglatadi. Lekin, “ribo” faqat foiz undirishiga taqiqdan ko‘ra kengroq mazmunga ega. Aslida “ribo” miqdor jihatidan nomuvofiq pul ekvivalentidan kelib chiquvchi har qanday noqonuniy yoki adolatsiz foyda olishga taalluqlidir. Pul - kredit foizlari yoki sudxo‘rlik (ya’ni pullarni pulga oldi-sotdi qilish) - bu riboning shakllaridan biri, xolos. Tizimning asosiy qoidasi hisoblanadigan riboni taqiqlash so‘zma-so‘z «ortiqchalik»ni anglatadi va «sotish yoki qarz shaklida bo‘lsin, kapitalning har qanday asossiz ko‘payishi» sifatida talqin qilinadi. Islomiy olimlar orasidagi umumiy nuqtai nazar shundan iboratki, ribo nafaqat sudxo‘rlikni, balki amaliyotda keng qo‘llaniladigan nohaq daromad hisoblashni ham o‘z ichiga qamrab oladi (1-rasm) [3].



1-rasm. Islomiy bankingning asosiy tamoyillari

Shuni ham ta’kidlab o‘tish lozimki, an’anaviy banklarga o‘z mablag‘larini ishonishga tayyor bo‘lmagan musulmon aholisining katta ulushiga ega, shuningdek, an’anaviy banklar xizmatidan foydalanmayotgan musulmon-tadbirkorlarning katta soniga ega bo‘lgan mamlakatlarda islom moliya institutlarini shakllantirish moliya bozorining samaradorligini oshirish va uning rivojlanishini tezlashtirish imkonini beradi.

Hozirgi kunda dunyoning 72 ta mamlakatida 500 dan ortiq islomiy bank muassasalari faoliyat yuritmoqda. Ularning eng katta konsentratsiyasi yaqin Sharq va Janubi-Sharqiy Osiyoning tarixan shartli mintaqasida (eng yirik markazlar - Bahrayn va Malayziya), shuningdek, Yevropa va AQShda joylashgan.

Islomiy bank muassasalari o‘z kapitalining geografik kelib chiqishi bilan emas, balki birinchi navbatda operatsion va investitsiya faoliyati tamoyillari bilan islomiy deb qaralishi kerak. Ular islom tamoyillariga qat’iy muvofiq ravishda operatsiyalarni amalga oshiradilar.

Global islomiy moliya tizimining yaratilishi 1960-1970 yillarda yaqin Sharq va Malayziyaning bir qator mamlakatlarida birinchi islomiy banklar tashkil etilishi, shuningdek davlatlararo Islom taraqqiyot banki (Islamic Development Bank) tashkil etilgan paytdan boshlanadi. Islom taraqqiyot banki (ITB) 1973 yil 18 dekabrda Islom konferensiyasi tashkiloti (IKT)ga a'zo mamlakatlar moliya vazirlarining yig'ilishida tashkil etilgan va 1975 yil oktabrda o'z faoliyatini boshlagan. ITBning bosh qarorgohi Saudiya Arabistonining Jidda shahrida joylashgan. Shu bilan birga, bank Rabat (Marokash), Kuala Lumpur (Malayziya), Almata (Qozog'iston) va Dakar (Senegal) da 11 vakolatxonalari va 4 mintaqaviy ofislariga ega.

Islom tamoyillariga mos keladigan Islomiy bank standartlarini ishlab chiqish bilan shug'ullanadigan bir qator boshqa tashkilotlar ham mavjud. Bularga Islom moliya institutlarining buxgalteriya hisobi va audit tashkilotlari (AAOIFI), Islom moliya xizmati Kengashi (IFSB), Xalqaro islom moliya bozori, Islom banklari va moliya institutlari kengashi (Council for Islamic Banks and Financial Institutions (CIBAFI)), «Islom moliya institutlari uchun arbitraj va yarashtirish markazi (Arbitration and Reconciliation Centre for Islamic Financial Institutions) kiradi. Bundan tashqari, Likvidlikni boshqarish xalqaro markazi islomiy qimmatli qog'ozlarning ikkilamchi bozorini rivojlantirish va islomiy moliyalashtirishning yangi moliyaviy vositalarini ishlab chiqish bilan shug'ullanadi, Xalqaro islom reyting agentligi esa islom moliya bozorini rivojlantirish, islom banklarining xalqaro standartlarini ishlab chiqish va islomiy moliyaviy tashkilotlarga reyting berish bilan shug'ullanadi.

Islom moliya institutlarining buxgalteriya hisobi va audit tashkilotlari (AAOIFI) 1995-yilda tashkil etilgan. Uning faoliyatining maqsadi Islom banklarining moliyaviy va xo'jalik operatsiyalarini hisobga olishning yagona usullarini ishlab chiqish va ularni tavsiyaviy xarakterdagi tegishli standartlar shaklida taqdim etishdan iborat. Musulmon mamlakatlarining bir qator Markaziy banklari ushbu standartlarni o'zlariga hisobot beradigan Islomiy moliya institutlari faoliyatini tartibga solish maqsadida qabul qildilar. Islom moliya xizmati Kengashi (IFSB), Xalqaro islom reyting agentligi, Islom banklari va Moliya institutlari Kengashi (CIBAFI), va boshqalar kabi tashkilotlarning maqsadlaridan biri - bu islomiy obligatsiyalar (sukuk) chiqarishga imkon beradigan infratuzilmani yaratishdan iborat.

Bugungi kunga qadar, islomiy moliyaviy xizmatlar sohasi sezilarli darajada o'sdi. Agar, 1990-yillarning o'rtalarida Islom banklarining aktivlari 150 mlrd. dollarni tashkil etgan bo'lsa, 2020- yilda - 2,7 trln. dollarga yetdi va ularning yillik o'sish sur'atlari 15 foizdan 25 foizgacha oshdi.

2024-yilda dunyoda 526 ta islomiy bank muassasalari mavjud bo'lib, ulardan taxminan 69% to'liq islomiy «avtonom» banklar, qolgan 31% esa «islomiy darcha»lar orqali islomiy xizmatlarni taklif qiluvchi an'anaviy banklar hisoblanadi. So'nggi yillarda Islom banklari o'zlarining tashqi kengayishini kuchaytirdilar, qabul qiluvchi mamlakatlarda o'zlarining ta'sir doiralarini kengaytirishga va zamonaviy transmilliy bank tuzilmasiga moslashishga intilib, xalqaro bank kapitali bozorida va xalqaro investitsiya oqimlari sohasida muhim rol o'ynadilar.

Hozirgi vaqtda islomiy moliya eng yaxshi tashkil etilgan birinchi 3 mamlakat jahon bozori hajmining 66 foizini tashkil etadi. Bular:

- Saudiya Arabistoni
- Yeron
- Malayziya




2-rasm. Islom banklari aktivlarining butun bank tizimi tarkibidagi ulushi, (foizda) [7].

Yuqoridagi 1-rasm ma'lumotlariga ko'ra, islomiy bankingning Quvaytdagi an'anaviy banklar aktivlariga nisbatan ulushi - 51,9 foizni, Qatarda - 28,3 foizni, Bangladeshda - 26,3 foizni, Malayziyada - 31,5 foizni va Saudiya Arabistonida esa 72,2 foizni tashkil qilgan. Shuningdek, Bahrayn, Iordaniya, Pokiston, Misr, Ummon, Turkiya, Indoneziya va boshqa mamlakatlarda islomiy banklarning butun bank tizimi aktivlaridagi ulushi 25 foizdan kamrog'ini tashkil qiladi. Faqat ikkita islomiy mamlakatda butun bank tizimi tarkibidagi islomiy banklarning ulushi – 100 foizni (Sudan va Eronda) tashkil qiladi.

Bugungi kunga kelib, islomiy banking sohada dominant «o'yinchilar» fors ko'rfazi va Eron mamlakatlari hisoblanadi. Janubiy va Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasi 15% bozor ulushi bilan islom banklari dunyosida ikkinchi o'rinda turadi. Ushbu mintaqa Bruney va Malayziya davlatlari kiradi va hududdagi yirik islomiy iqtisodiyotlar (islom tamoyillariga muvofiq moliyaviy xizmatlar ko'rsatilishi bo'yicha), hamda Indoneziya (dunyodagi eng katta musulmon aholisi bo'lgan mamlakat) kiradi. Pokiston va Bangladesh mintaqadagi eng ko'p aholiga ega davlatlar qatoriga kirganiga qaramay, ularning jahon islomiy moliyaviy xizmatlar bozoridagi ulushi 2 foizdan oshmaydi. Umuman olganda, islom mamlakatlarida aholi va daromadlarning o'sish sur'atlarini hisobga olgan holda, islomiy bankingni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Bu, ayniqsa, islomiy bank sohalari kam rivojlangan, ammo musulmon aholisi ko'p sonli islomiy mamlakatlarga tegishli.

Islomiy banklarning kapitalining yetarlilik darajasi ham odatda me'yoriy talablardan sezilarli darajada oshadi. Xususan, Buyuk Britaniya, Turkiya, Afrika, fors ko'rfazi mamlakatlari va Erondagi islomiy banklar kapitalning yetarlilik darajasi bo'yicha eng yuqori talablarga javob berishdi. Masalan, 2020 yilda ushbu mamlakatlardagi islom banklari uchun kapitalning yetarlilik darajasi mos ravishda 33, 32, 26 va 19 foizni tashkil etdi, bu Bazel-III kelishuv muvofiq bank kapitalining yetarliligi uchun minimal 8%lik talabdan ancha yuqori [8].

Islomiy banklarning aksariyati nisbatan kichik. Aktivlarning kichik hajmiga qaramasdan, islomiy banklar odatda kapitallashgan va likvidli bo'lib, likvidlik darajasi mintaqaga va ularning bozor ulushiga qarab o'zgaradi.




2-rasm. Aktivlarning miqdori bo'yicha islom banklarining soni, (foizda) [7].

Yuqoridagi 2-rasm ma'lumotlariga ko'ra, 20 milliard dollardan ortiq aktivlar hajmiga ega bo'lgan islomiy banklar soni jami – 11 foizni va 20 milliard dollardan ortiq aktivlar hajmiga ega bo'lgan 11 % - 10 20 milliard AQSh dollarini tashkil etadi. Banklar 12% 5 10 milliard dollar aktivlar bor, 27% da ular 1 dan 5 milliard AQSh dollargacha, qolgan 40% esa 1 milliard dollardan kamroq aktivlarga ega.

Islomiy banklarning aktivlarining rentabelligi ham ijobiydir: Afrikada, fors ko'rfazi mamlakatlarida, Eron va Osiyoda ishlaydigan banklar boshqa hududlarda banklarga qaraganda ko'proq daromad keltiradi. Buning bir sababi shundaki, ushbu hududlarda ayrim banklar davlat banklari bo'lib, asosan davlat korxonalari va davlat loyihalarini moliyalashtiradi.




3-rasm. Islom banklarining soni va aktivlarini hududlar bo'yicha tarkibi, (foizda) [8].

Yuqoridagi 3-rasm ma'lumotlariga ko'ra, islomiy banklar aktivlarining asosiy qismi (77%) yaqin Sharq va Shimoliy Afrikada, keyin Osiyo (18%), Yevropa (3,73%) va Sahro orti Afrika mamlakatlari (1% dan kam) ga to'g'ri keladi. Xuddi shu taqsimot dunyoning turli mintaqalarida joylashgan islomiy banklar soniga xosdir: islomiy banklarning 50% - yaqin Sharqda va Shimoliy Afrikada, 30% - Osiyoda va 15% - Afrikaning janubiy mamlakatlarida joylashgan.

Bugungi kunda islomy banking tashqi manbalardan moliyalashtirishga jiddiy ehtiyoj sezayotgan rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiyotiga faol kirib bormoqda. Ayniqsa, bu tendensiya bank xizmatlari ilgari kam rivojlangan mamlakatlarga xosdir. Islom diniga e'tiqod qiladigan MDH mamlakatlarida islomiy bankingni rivojlanishi moliyaviy infratuzilmaning rivojlanmaganligi, iqtisodiy bilimlarning past darajasi va islomiy moliyaviy xizmatlar to'g'risida qarashlarning zaifligi bilan cheklanadi.

Qozog'iston islomiy moliyalashtirish sohasida qonunchilikni joriy etgan MDHning birinchi mamlakatiga aylandi: 2009 yilda "Islom banklarini tashkil etish va faoliyati hamda islomiy moliyalashtirishni tashkil etish masalalari bo'yicha Qozog'iston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Shunga qaramasdan, mamlakatda islomiy banking hali ham rivojlanishning dastlabki bosqichida turibdi. Islomiy banking aktivlarining ulushi bank sektorining umumiy aktivlaridan 1% (jami 0,08%) dan kam. Biroq, 2030 yilgacha Qozog'iston Respublikasi moliya sektorini rivojlantirish konsepsiyasiga ko'ra, bu ko'rsatkich 3-5%ga erishilishi kerak. Bugungi kunda Qozog'iston islomiy bank sektorida faqat bitta bank – 2010 yilda ro'yxatdan o'tgan Al Hilol Islom banki (ushbu bankning Bosh ofisi Abu-Dabida joylashgan) faoliyat ko'rsatadi. Mamlakat Islomiy moliyaviy xizmatlar Kengashi, Islom moliya institutlarining buxgalteriya hisobi va audit tashkiloti hamda Xalqaro islomiy moliya bozorlari tashkilotlari a'zosi.

Bugungi kunda Qirg'izistonda islomiy banking faoliyatini tartibga soluvchi 16 ta normativ hujjat mavjud. 2008-yildan buyon mamlakatda OAJ "Ekoislamikbank" islomiy moliyalashtirish tamoyillarida faoliyat yuritmoqda.

Rossiyada islomiy banklarni tashkil etishga kamida uch marta urinish bo'lgan, ammo ular muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Shunday qilib, Kemerovo shahrida 1992- yilda va Mahachkalda 1996-yilda ochilgan islomiy banklar o'z faoliyatini to'xtatdilar. 1997-da Islomiy Badr bankini tashkil etishga urinish ancha muvaffaqiyatli bo'ldi, ammo 2006-yil dekabr oyida Rossiya banki tomonidan berilgan bank operatsiyalarini amalga oshirish uchun litsenziyasi bekor qilindi. Bugungi kunda Rossiyada islomiy banklarni qonunchilik va soliq darajasida maxsus tartibga solish mavjud emasligi ularning faoliyatini rivojlantirishga to'sqinlik qilmoqda. Rossiya Federatsiyasining Fuqarolik kodeksiga muvofiq, qarz oluvchi va bank o'rtasidagi shartnoma faqat foizli sifatida talqin qilinadi va "Banklar va bank faoliyati to'g'risida" Federal qonun ham kredit uchun haq to'lashda faqat foiz to'lovlari prinsipini nazarda tutadi. Xulosa qilib aytganda, Rossiyaning joriy qonunchiligi doirasida islomiy banklar faoliyati imkonsizdir. Shunga qaramasdan, ayrim mualliflar, Rossiyada Islomiy banklarni tashkil etish imkoniyati mavjud va islomiy banklarning huquqiy modeli sifatida diniy sheriklikning tashkiliy-huquqiy shaklidan foydalanishni taklif qilishadi [9].

Afsuski, hozir kunda O'zbekistonda islomiy bank yoki mahalliy banklarimizda bunday xizmatlar mavjud emas. Lekin, O'zbekiston aholisining islomiy moliyaviy xizmatlar va foizsiz bankka bo'lgan qiziqishlari juda

yuqori boʻlganligi sababli, yurtimizda islom moliyaviy xizmatlarini koʻrsatish tizimini shakllantirish borasida qator ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Islom taraqqiyot banki guruhi va arab muvofiqlashtirish guruhi jamgʻarmalari bilan sheriklikni yanada kengaytirish va chuqurlashtirish chora-tadirlari toʻgʻrisida”gi 05.03.2019 yildagi PQ-4224-sonli qarori 2-bandida Oʻzbekiston Respublikasining Islom taraqqiyot banki guruhi va Arab muvofiqlashtirish guruhi bilan uzoq muddatli sherikligining asosiy yoʻnalishlari hamda vazifalaridan biri sifatida davlat-xususiy sherikligi mexanizmlarini, jumladan vaqf-jamgʻarmalarni tashkil etish yoʻli bilan qoʻllab-quvvatlash dasturlarini birgalikda ishlab chiqish va Oʻzbekistonda tatbiq qilish belgilangan [11].

Yaqin kelajakda Oʻzbekistonda Islom banki va moliya infratuzilmasi yaratilishi mumkin. Hozirgi kunda, respublikamizning 14 ta bankida islom darchalarini yoʻlga qoʻyish boʻyicha ishlar olib borilmoqda, shuningdek, islom moliyasiga oid qonun loyihasi ishlab chiqilgan va islom moliyasi konsepsiyasini oʻz ichiga olgan nobank kredit tashkilotlari toʻgʻrisidagi qonunni qabul qilinishi rejalashtirmoqda. Avvaliga mikromoliya tashkilotlariga, soʻngra tijorat banklariga islom moliyasi boʻyicha operatsiyalarni amalga oshirish huquqi belishishi koʻzda tutilgan. Nobank tashkilotlari tomonidan koʻrsatiladigan moliyaviy xizmatlar doirasini kengaytirish moʻljallangan.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Islomiy bank faoliyatining tamoyillarini tushunish mamlakatning moliyaviy barqarorligini taʼminlash uchun juda muhimdir. Birinchidan, islom banklari anʼanaviy banklar bilan hamkorlikni rivojlantirish va kengaytirish borasida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ikkinchidan, xedjirlash vositalarining etishmasligi islom moliya institutlarida xatarlarning konsentratsiyasini keltirib chiqaradi. Natijada, anʼanaviy moliyaviy tizim doirasida islom moliya institutlarining tartibga solinmagan holda rivojlanishi ularning barqarorligini pasayishiga va moliyaviy beqarorlikning oshishiga olib kelishi mumkin.

Bugungi kunda Oʻzbekistonda islom moliya institutlarining sekin rivojlanishi uchta asosiy omil bilan izohlanadi: birinchi navbatda, islom moliya sanoatining jadal oʻsishiga Oʻzbekiston Respublikasida bunday tashkilotlarning faoliyat yuritishini nazarda tutmaydigan qonunchilik toʻsqinlik qilmoqda. Ikkinchidan, turli xil moliyaviy mahsulotlarning muvofiqligi toʻgʻrisida xulosa beradigan (yoki fikr bildiradigan) maxsus organ yaratmasdan bunday institutlarning muvaffaqiyatli ishlashi deyarli mumkin emas. Ushbu muammolarni hal qilishda hukumat tomonidan qoʻllab-quvvatlash va islom banklari faoliyati bilan bogʻliq standartlarni ishlab chiqish uchun moʻljallangan xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan yaqin aloqalarni oʻrnatish zarur.

**Foydanilgan adabiyotlar roʻyxati**


1. Chapra M.U. What is Islamic Economics? — Jeddah, 2001. — 200 s.
2. Al-Azzawi A.A. The characteristics and modern problems of islamic banks. Vestnik Universiteta. 2016; (7-8):5-11.
3. Zamir Iqbal, Abbas Mirakhor. An introduction to islamic finance: theory and practice. Singapore: John Wiley & Sons (Asia), 2011.
4. Islamskiy banking / Juravlyov A.Yu., nauchn. red. A.O. Filonik.»: Sadra; Moskva; 2017.
5. Bekkin R. I. Islamskaya ekonomika. Kratkiy kurs. M.: AST Vostok–Zapad, 2008. 288 s.
6. Nurmuxammedov Abdijabbar Yunusovich. (2024). Ways to Develop Innovative Banking Services in Uzbekistan. Miasto Przyszłości, 52, 76–83. Retrieved from https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/4539
7. Nurmuxammedov, A. Y. . (2022). Mechanisms for Improving Long-Term Lending Practice by Commercial Banks. EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY, 2(10), 11–16. Retrieved from https://www.inovatus.es/index.php/ejbsos/article/view/1311
8. Manbaa: Islamic Financial Services Industry Stability Report 2022 -https://ifsb.org/download.php
9. Manbaa: Informatsionno-analiticheskiy portal «Islamic-Finance» - http://islamic-finance.ru/index/0-2
10. Manbaa: DinarStandard & Ellipses — Globalnыy otchet ob islamskix finansovыx texnologiyax za 2022 god - https://www.salaamgateway.com/specialcoverage/islamic-fintech-2022
11. Manbaa: Oʻzbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari maʼlumotlari milliy bazasi - www.lex.uz

muhandislik
& iqtisodiyot
ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

**2026. № 2**

© Materiallar koʻchirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida koʻrsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S–5669245 reyestr raqami tartibi boʻyicha roʻyxatdan oʻtkazilgan.
**Litsenziya raqami: №095310**.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod**
**tumani 15-mavze 19-uy**